

EKOLOGIK VAZIYAT VA ULARNING OLDINI OLISH MASALALARI

Rasulov Asliddin Ma'murjon o'g'li

Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti.

Ingliz tili filologiyasi 4 bosqich talabas

Annotatsiya: *Mazkur maqola ekologik vaziyat va uning oldini olish chora tadbirlarini ma'lum hududlar kesimida o'rganib chiqishga bag'ishlangan. Kitob davlat geologik qo'riqxonasi misolida ekologik vaziyatning yaxshilanishiga erishish hamda muqobillashtirish.*

Kalitso'zlar: *Ekologik vaziyat, fan-texnika taraqqiyoti, Kitob davlat geologic qo'riqxonasi, ko'kqush.*

Yer shari aholisi soni o'sib borishi vatan-texnika taraqqiyoti davrida, turli-tuman sanoat korxonalarining ko'payishi natijasida atrof muhitda ekologik muhofaza yomonlashib boradi. Barchamizga ma'lumki ona tabiatimizning holati birdaniga yomonlashib qolmaydi balki bu jarayonning amalga oshishi uchun uzoq vaqt kerak bo'ladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ekologik vaziyat asta-sekinlik bilan yomonlashib boradi. Bu esa o'z navbatida ekologik vaziyatni barqaror saqlash uchun turli xil chora tadbirlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda.

Ekologik vaziyatning yomonlashuvi hozirgi kunning eng keng miqyosdagi va keskin ijtimoiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Mazkur muammoni hal qilish ma'lum bir hudud yoki ayrim kishilarning emas balki butun boshli xalqlarning zimmasidagi vazifadir zero

Bugungi kunimiz va kelajagimizning taqdiri ko'p jihatdan mana shu muammoning hal qilinishiga bog'liq. Ekologik muammolar yer yuzining hamma joyida mavjud bo'lib ularning bir-biridan farqi shundaki muammoning keskinlik darajasi dunyoning turli burchaklarida turlicha ekanligidir. Yuqorida aytib o'tilgan muammolar bizning mamlakatimiz hududini ham cheklab o'tgani yo'q albatta. Bizni o'rab turgan atrof-muhitning ifloslanishi ekologik vaziyatning yomonlashuvi ham bevosita biz insonlarning hayot faoliyatiga, kundalik ehtiyojlarimizning haddan tashqari ortib borishi, sanoat korxonalarining yildan-yilga kengayib hamda son jihatdan ko'payib ketishiga va shu kabi bir qancha sabablarga bog'liq. So'nggi yillarda ekologik vaziyatning yomonlashuvi oqibatidan turli xildagi o'ziga xos epidemiologik vaziyatlarga sabab bo'ladigan, oldin fanga ma'lum bo'lmagan mutlaqo yangi butun bir guruh yuqumli kasalliklarning insonlar orasida tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi muammolar avj olgan hozirgi davrda jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni muqobillashtirish eng asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi, zero tabiat jamiyatning yashash muhiti, uning hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirishning manbai hisoblanadi. Binobarin, tabiatni qanchalik asrab-avaylasak, kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan ekologik muammolarni qanchalik vaqtli oldini olsak yoki mavjud muammolarni bartaraf qilsak, ertangi hayotimiz ham shunchalik farovon bo'ladi. Shu ma'noda, hozirgi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiqdir.

Zero, bugungi olib borilayotgan say-harakatlar ertangi porloq kelajagimiz uchun quyilgan mustahkam poydevor hisoblanadi. O'lkamizda tabiatni muhofaza qilish, jonivorlarni asrash maqsadida deyarli har bir viloyatda qo'riqxonalar tashkil etilgan. Ularni tashkil etishdan asosiy maqsad tabiatni muhofaza qilish hamda o'simlik va hayvonot olamini ko'paytirishdir. Qashqadaryo viloyatida «Hisor» tog'-archazor qo'riqxonasidan tashqari O'zbekistondagi yagona "Kitob" davlat geologic qo'riqxonasi Zarafshon tog'larining g'arbiy qismida 1979-yilda tashkil etilgan. Buyerda yurtimizdagi noyob o'simlik va hayvonlar muhofaza qilinadi. Shuningdek, qo'riqxonadan faqat hududdagi eko tizimni saqlab qolish, shuningdek xalqaro va O'zbekiston Respublikasi «Qizilkitobi»ga kiritilgan o'simlik, hayvonot olamini ham muhofaza etishga xizmat qiladi. Uning umumiy maydoni 4 ming gektarni tashkil etadi. Yer sharining geologik tarixi bo'yicha tabiiy ilmiy yodgorlik hisoblanadi. Ushbu geologik qo'riqxonada o'z ahamiyati jihatidan jahon geologik merosining eng ajoyib ko'rinishi sifatida xalqaro maqomga egadir. "Kitob" davlat geologik qo'riqxonasi nafaqat bir necha yuz million yillar avval yashagan, hamda davrlar o'tib iqlim o'zgarishlari natijasida qadimgi dengiz jonzoqlari tosh bo'lib qotgan kesmalari, balki bugungi kun hayvonot va nabotot olami bilan ham mashhurdir. Qo'riqxonada 300 xil manzarali o'simliklar o'sadi. Shundan 280 turi xalq tabobatida ishlatiladi. 22 turi esa O'zbekiston Respublikasining "Qizilkitobi"ga kiritilgan. Shuningdek, sutemizuvchilarning 21 turi, sudralib yuruvchilarning 14 turi, suvda va quruqlikda yashovchilarning 2 turi, baliqlarning esa 3 turi mavjud. Qo'riqxonada tarvaqaylab o'sgan yong'oqlar, turli xil mevali daraxtlar, baland bo'yi yovvoyi qizil do'lanalar va boshqa daraxt turlarini uchratish mumkin. Ammo ularning shoxlarida sayrayotgan qushlar soni uncha ko'p emas. 128 turi muhofaza qilinsa ham, aksariyati juda kam uchraydi. Shuningdek, Zin-zil boy soyi bo'ylab yurganda daraxt turlari, archalar, jilg'alarni ham ko'rish mumkin. Bu yerda o'simliklar, hayvonlar, qushlarning nihoyatda noyob turlarini uchratsa bo'ladi. Ana shulardan biri hududimizda kam uchraydigan, o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi ko'kqushdir. Tabiatda ko'k va moviy tusli qushlar ko'p, ammo ko'k qushlarning hech biri emas. Uning ilmiy unvoni "My ophonus caeruleus Scop" deb nomlangan (1-rasm). Ko'k qush qo'riqxonada soylarining maftunkor qushidir, u toshqin suvlarda qad ko'tarib turuvchi toshlarda uchraydi, to'q ko'k rangda tovlanib, ovozi nafis va jarangdor yangraydi. "Uni ko'rgan inson baxtli bo'larmish", degan gaplar xalq orasida keng tarqalgan va bu haqida rivoyatlarda ham aytib o'tiladi. Soylar, daralar bo'ylab yurganda daraxtlarning ancha siyrak, shuningdek, soyli joylardan nisbatan qalinroq o'sganini ko'rish mumkin. Qo'riqxonada Zarafshon archasi ham muhofaza qilinadi. Archa uncha baland o'smagan, sarg'ayib qolgan o't-o'lanlar bilan qoplangan, tog' yonbag'riga yashilligi bilan chiroy baxsh etib turadi. O'zidan xushbo'y hid taratadi. Bu betakror hudud xalqaro tadqiqotlar markaziga aylangan.

O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonuniga va O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Tabiatni muhofaza qilish davlat muassasasi shaklidagi Kitob geologiya milliy tabiat bog'ini tashkil etish to'g'risida" 2020-yil 30-iyundagi PQ-4766-son prezident qarori e'lon qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A O'zbekiston XXI-ars bo'sag'asida.Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolati. Toshkent, "O'zbekiston", 1997
2. Alibekov L.A., Nishonov S.A Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan ratsional foydalanish. Toshkent, 1982
3. Akromov Z.M., ZolotaryovE.LTabiatni muhofaza qilish, Toshkent, 1975
4. Qoriev M., Isamuhamedov M. O'zbekiston o'rmonlari va qo'riqxonalari, Toshkent, 19725.Bannikov A.G., Rustamov A.Q Oxranaprirodiy. Moskva 1977
6. Biosfera zapovednika (sbornik). L 1977